

Qisqa satrlarda

BAYRAMGA MUNOSIB SOVG'A

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida joylashgan 15-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilariga Istiqlol bayramiga atab ajoyib sovg'a hozirlanyapti. Tumandagi «Binokor – 7» ishlab chiqarish korxonasi quruvchilari tomonidan 1-TIP loyiha asosida 200 o'rinli Musiqa va san'at maktabi bunyod etilayapti. Mohir quruvchilar hozirdanoq yangi o'quv yilini yangi binoda boshlaydigan o'g'il-qizlar qalbidagi, yuz-ko'zlaridagi quvonchni tasavvur qilib, farzandlarimiz kamoloti yo'lida mehnat qilayotganimizdan baxtiyormiz, deyishmoqda.

KICKINTOYLAR SEVINCHI

Samarqand shahridagi «Bog'lbaland – 1» mahallasi kichkintoylari homiylardan munosib sovg'a olishdi. Mahallada bolalar maydonchasi qurilib, o'z egalariga topshirildi. Zamonaviy attraksionlar bilan ta'minlangan shinam maydonchada 700 ga yaqin oila farzandlari ta'til gashtini surishmoqda.

Mahallada bolalar o'rta-sida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida sport zali va mini-futbol maydoni ham barpo etilgan edi. Bu maskanlar kichkintoylarning aqlan yetuk, jismolan sog'lom bo'lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi.



Aziz bolajonlar, suratlardagi tengdoshlaringizning ta'tilda miriqib hordiq chiqarishayotganini yuz-ko'zlari aytib turibdi-a?

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-maktab qoshida tashkil etilgan «Qaldirg'och» nomli sog'lomlashtirish oromgohida yaratilgan shart-sharoitlar-u tadbirlardan zavqlanmay bo'ladimi, axir?! Bu yerda har kuni biror tadbir, sayr-u sayohat. Hayvonot bog'iga, muzey va teatrlarga borishni qaysi bolakayxohlamaydi, deysiz? «Quvnoq ekspress», «Men sevgan inglizcha kitob» kabi tadbirlar, «Sarishtalik», «Bilimlar kamalagi» tanlovlari o'quvchilarning bo'sh vaqtiga mazmun baxsh etishi bilan birga, yil davomida olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ertalabki badantarbiya, hovuzda cho'milish, sport musobaqalari esa ular salomatligining garovi.

Mehribon tarbiyachilar-u shifokorlar nazorati ostida yoz gashtini surayotgan bu o'g'il-qizlar yangi o'quv yilida eng a'lochi, zukko, sog'lom o'quvchilar bo'lishsa, ajabmas!

Yaqinda Milliy matbuot markazida O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tashabbusi bilan «Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash borasidagi dolzarb vazifalar to'g'risida» matbuot konferensiyasi bo'lib o'tdi.



xatar va tahdidlarga qarshi tura oladigan qilib tarbiyalash bilan bevosita bog'liqdir.

Internetning bolalar va o'smirlarning ruhiy hamda

8 ta bob va 34 ta baddan iborat bo'lgan ushbu qonun loyihasida bolalar va o'smirlarning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy sog'ligi hamda o'sishiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar, shu jumladan, zo'ravonlik, shafqatsizlik, pornografiya, ijtimoiy hayotga zid xulq-atvorlarni targ'ib qiladigan bosma, audio-audiovizual mahsulotlar, elektron va kompyuter o'yinlaridan himoyalashning qonuniy kafolatlari va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini aniq belgilash maqsadi ko'zlanmoqda.

Feruza SOYIBJON qizi

EZGU MAQSAD YO'LIDA

Ma'lumki, biz texnika, tig'iz axborotlar asrida yashaymiz. Fan-texnika rivoji yuqori cho'qqilarga ko'tarilgan ayni tezkor zamonda tabiiyki, axborot aylanishi tezlashdi. Taraqqiyot belgisi hisoblangan internet tarmog'idan istalgan ma'lumotni olish mumkin.

Internet tarmog'ining kengayib borishi natijasida 2013-yilda 250 ga yaqin veb-saytlar ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tkazilganini alohida qayd etish lozim. Bugun hatto bolakaylar ham internet bilan bemalol «tillasha» oladi. Dunyo yangiliklaridan xabardor bo'ladi, tengdoshlari yutuqlaridan ibrat oladi. Bu, albatta, yaxshi.

Biroq, internetda yoshlarimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan axborotlar ham mavjudligini

inkor etib bo'lmaydi. Undan foydalanishda ehtiyotkor va ziyrak bo'lish juda muhim. Farzandlarimizni turli axborot xurujlaridan himoyalash oldimizda turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Bu borada yurtimizda talaygina ijobiy ishlar amalga oshirilayotgani tahsinga loyiq.

Istiqlolning dastlabki yillaridan oq davlatimiz tomonidan har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, o'z hayotiy maqsadlari va mustahkam e'tiqodiga ega, jamiyatda munosib o'rin egalashga qodir avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa deb belgilangan. Mazkur vazifani bosqichma-bosqich amalga oshirish, yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rnatish, ularni axborot makonidagi

ma'naviy rivojiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlarni jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlardan himoya qilish to'g'risida»gi Qonun loyihasini tayyorlash dolzarb vazifa etib belgilandi hamda Matbuot va axborot agentligi va tegishli davlat, no-davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda mazkur qonun loyihasi ishlab chiqildi.



ZMISHONOVA olgan surat

HAMKORLIKDA IKMAT KO'P



«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri bu xalqaro hamkorlikdir. Uning doirasida xorijdagi eng nufuzli klinikalarda bemor bolalarimiz salomatligi tiklanadi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, «Muruvvat», «Mehribonlik» va «Saxovat» uylari, maxsus maktab-internatlari tarbiyalanuvchilarini qo'llab-quvvatlash uchun dori-darmon, tibbiy jihozlar, sanitariya-gigiyena vositalari, kiyim-kechak, oziq-ovqat, nogironlik aravachalari, sport inventarlaridan iborat muruvvat yordamlari topshirib kelinmoqda.

Jumladan, USAID xalqaro tashkilotining «Tinchlik yo'lidagi oziq-ovqat yordami» dasturi doirasida AQSHning «Resource and Policy Exchange» xalqaro tashkiloti tomonidan poytaxtimizga navbatdagi insonparvarlik ko'magi keltirildi.

Kuni kecha Jamg'arma binosida mazkur yuklarni topshirish bo'yicha taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. Muruvvat yordami respublikamizdagi 100 dan ortiq tibbiy va ijtimoiy muassasalarga, shuningdek, kam ta'minlangan, imkoniyati cheklangan aholiga tarqatilishi ko'zda tutilgan.

Tibbiy va ijtimoiy muassasalarda davolanayotgan bemor bolajonlarni sog'lomlashtirishda, tarkibi vitamin va mikroelementlar bilan boyitilgan bunday mahsulotlarning asqotishi tabiiy.

O'z muxbirimiz

Yaqinda Abdulla Avloniy nomidagi xalq la'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institutida umumla'lim maktablari direktorlari o'rtasida «Yangi davr rahbari» ko'rik-tantovi o'tkazildi.

TA'TIL MAS'ULIYATI



U.HAMIDULLAYEV olgan surat

tomonni diqqat bilan tinglab, vaziyatni o'rganib, to'g'ri va oqilona hal etish juda muhim. Ana shundagina ijobiy natijaga erishiladi, deb o'ylayman. Men ham o'z ish faoliyatimda ustozlarim o'g'itlariga amal qilmoqdaman.

Ayni ta'til kunlarida ham maktabimiz o'quvchilar bilan gavjum. «Bog'iston» nomli maktab oromgohimizda bolajonlar nafaqat dam olishadi, balki turli viktorinalar, savol-javoblar, suhbatlar asnosida o'z bilim va salohiyatlarini yanada oshira boradilar. Biz ustozlar esa buning uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilayapmiz.

Maktab rahbarlarining ta'tildagi mas'uliyati yanada oshadi. Chunki u yangi o'quv yilida o'z o'quvchilari-yu o'qituvchilarini yaxshi kayfiyatda, sog'lom, baquvvat, ilmga chanqoq holda kutib olishni istaydi. Shuning uchun u ta'tilda ham tinmay mehnat qiladi, mahoratini oshira boradi. Buni biz maktab rahbari Dilorom opa Abdullayeva misolida kuzatdik.

OLMOS



QULAY FURSAT

O'quvchining darsdan tashqari biror mashg'ulotga qiziqishi maktab partasidayoq paydo bo'ladi. U o'z mashg'ulotidan zaqlanishi, ustozlaridan maslahat va ko'rsatmalar olib, uni asta-sekin kundalik hayotining ajralmas qismiga aylantirishi lozim.

Maktabimiz o'quvchilari badiiy adabiyotlar bilan shaxsiy kutubxonalarini boyitish, pochta markalari, turli yorliq, nishon va shu kabi o'zlarini qiziqtirgan buyumlardan kolleksiyalar to'plashga ahd qilishgan. Shuni ta'kidlash joizki, kolleksiyalarning bir-biridan farq qilishiga, ma'lum soha hamda mavzuga oid bo'lsa, alohida ko'rsatib borilishiga e'tibor qaratilayapti.

Bu o'z-o'zidan bo'lmaydi, albatta. Buning uchun qo'shni maktab o'quvchilari bilan do'stlik aloqalari o'rnatish, xatlar yozishish, pochta va aloqa xizmatchilari bilan hamkorlik qilish taqozo etiladi. Bu borada o'quvchilari-mizdan Manzura Mamanova, Nargiza Abrorova va Doniyor Shoyzoqov faollik ko'rsatishmoqda. Ko'plab ba-



diy kitoblarni to'plab, o'qib borishmoqda.

Hayotimiz zavqli, go'zal va rang-barang. O'quvchi qanchalik foydali ishlar bilan mashg'ul bo'lsa, izlansa, qiziquvchanligi ortib borsa, qarshisida hayotning sir-sinoatlari namoyon bo'lib boraveradi. Bunda mahalla ahli, ustozlar va ota-onalarning o'rni beqiyos, albatta.

Hozirgi ta'til kunlari esa o'quvchilarning sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari uchun juda qulay fursatdir.

Ra'no ESHBEKOVA,
Jizzax shahridagi
1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

ODOBNING BOSHI – SALOM

Assalomu alaykum! Ushbu ibora «Sizga salomatlik tilayman» ma'nosini bildirishini barchamiz yaxshi bilamiz. Shuningdek, bu kalom insonning ruhiyatini ko'tarishga, a'lo kayfiyat ulashishga xizmat qiladi.

Xalqimizga ko'plab yaxshi fazilatlar xos. Ular sirasiga kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish ham kiradi. Bu fazilat bizning qon-qonimizga singib ketgan. Shunday bo'lsa-da, biz yoshlarga, ota-onalarimiz bilan bir qatorda ustozlarning, yoshi ulug' kishilarning ham

hurmatini joyiga qo'yish lozimligi doimo uqtirib turilsa, foydadan holi bo'lmaydi.



Aziz tengdoshim, ro'parangizdan chiqqan odamga, xoh u tanish bo'lsin, xoh notanish, sizdan kattami, salom bering. Fikrimizcha, bu ikki og'iz so'zni aytish sizga qiyinchilik tug'dirmaydi. Kattalar bilan to'qnash kelib qolsangiz, albatta, yo'l bering, shunda ularda ham sizga nisbatan hurmat hissi uyg'onadi. Kamchiliklaringizni yo'qotib, fazilatlarigizni oshiring. Ayrim tushunmovchiliklar hurmatsizlikdan boshlanadi, katta muammolar esa kichik mojaro-lardan kelib chiqadi. Bu fikrlar sizga balki juda jo'n tuyular, nima bo'lganda ham xulosa chiqarish o'zingizga havola.

Go'zal OTAXONOVA,
Toshkent davlat yengil sanoat instituti
qoshidagi akademik litsey o'quvchisi

SAHIFANG QO'L KELYAPTI



Salom, qadrdonim «Tong yulduzi»! Sen bilan hatto yozgi ta'tilda ham xayrlashgim yo'q. Har bir soningni intiqlik bilan kutib, maroq bilan o'qib boryapman. Yurtimizda biz bolalar uchun sendek qiziqarli, mazmunli gazeta borligidan behad mamnunman.

Men she'r va maqolalar yozishga, til o'rganishga qiziqaman. Ayni ta'til kunlari o'quv yili davomida ingliz tilidan olgan bilimlarimni yanada mustahkamlab, mustaqil ravishda so'z boyligimni oshirib boryapman. Bunda menga «Ingliz tilini o'rganamiz» nomli sahifang juda qo'l kelyapti. Undagi boshqotirma va so'z o'yinlarini ukam Sardor, singlim Malika bilan birgalikda yechyapmiz, grammatikani o'rganyapmiz.

Kelajakda xalqaro jurnalist bo'lib, yurtimizdagi o'zgarish va yangilanishlar haqida xorijiy tillarda maqolalar yozishni, O'zbekistonimiz nufuzini yanada oshirishga o'z hissamini qo'shishni niyat qilaman. Buning uchun esa bizda barcha imkoniyatlar bor. Ulardan unumli, maqsadli foydalana olsak, bas.

Maftuna BOTIROVA,
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 34-umumta'lim maktabining
8-«B» sinf o'quvchisi

Salom, sevimli gazetam «Tong yulduzi»! Men sening har bir soningni intiqlik bilan kutaman. Undagi maqolalarni qiziqish bilan o'qib boraman.

O'tgan sonlaringdan birida ozodalik, pokizalik haqidagi maqolani o'qib qoldim. Tozalikka rioya qilmagan bolalar o'rtoqlari oldida mulzam bo'lib qolishi tengdoshlarimiz orasida ba'zan uchrab



TOZALIK – INSON KO'RKI

turadigan holat. Ammo qiz bola doimo orasta yurgani ma'qul.

Chunki ko'plab kasalliklar ozodalikka, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilmasligimiz bois kelib chiqadi. Qo'llarimizni sovuqlab yuvib, keyin taom yeyishga odatlansak, o'zimizni «chaqirilmagan mehmonlar» –

mikroblardan himoya qilgan bo'lamiz.

Aziz tengdoshlar, tozalik insonning ko'rki ekanligini unutmaylik.

Go'zalbonu ISLOMOVA,
Samarqand viloyati, Jomboy
tumanidagi 40-ixtisoslashgan
maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi

SEVIMLI YOZUVCHIMGA

«Tong yulduzi»da tengdoshlarimning sevimli yozuvchilariga atab yozgan maktublarini o'qib, men ham bobomiz Anvar Obidjonga dil so'zlarimni yetkazgim keldi. Ular gazetaning 2013-yil 13-sonidagi «Yaxshi kitob oftobga o'xshar» sarlavhali maqolada fikrlari kitobga bo'lgan mehrimni yanada oshirdi. Va adibimizning «O'q o'tmas bolakay yoxud oltin yurak» nomli asarlarini o'qishga kirishdim. Ayniqsa, kitobdagi «Avtobola» qissasi menga juda manzur bo'ldi.

Kuni kecha adibimizning «Tong yulduzi» kutubxonasi» rukni ostida e'lon qilingan «Atrofimizdagi qiziqchilar» nomli mitti kitobchasini ham uka va singillarimiz davrasida maroq bilan o'qib chiqdik.

Bizga ana shunday yangi-yangi asarlarni taqdim etayotgan ijodkorlarimizga o'quvchilar minbari bo'lgan gazeta orqali minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Shahrinoz ANVAROVA,
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi
219-maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi



KITOBNING O'RNI

Ba'zi insonlar ilmni faqat kitob o'qibgina emas, balki boshqa yo'llar bilan ham egallash mumkin, deb o'ylashadi. Nazarimda, bu o'zi kitob o'qimaydigan kishilarning fikridir.

Aslida kitob o'qimay turib ilm egallash mutlaqo mumkin emas.

Fikrimizning dalili sifatida Hazrat Navoiyning besh yoshidayoq Fariduddin Attorning «Mantiq ut tayr» nomli hikmatli kitobini yodlab olganliklarini ta'kidlash kifoya. Bobomiz yetti yoshlaridan boshlab hikmatli kitoblarni o'qib-o'rganishga kirishganlar. Buning natijasi esa yer yuzidagi barcha ma'rifati insonlarga yaxshi ma'lum. Demak, kitobning o'rni hech narsa bosa olmas ekan.

Gulchiroyxon AHMADJONOVA,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi
33-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi





«Yurt ozod, turmush obod» insholar va rasmlar tanloviga

«Tong yulduzi» gazetasi orqali an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovida ham munosib ravishda 3-o'ringa loyiq topildi.
– Bu yutuqlarimga ota-onam, buva va buvjonlarim duolari tufayli erishib kelyapman, – deydi Mahliyo mamnuniyat bilan. – Har gal kattalar duoga qo'l ochganlarida, yurtimizga,

Qadrlı bolajonlar, siz faol o'quvchi deganda, qanday fazilatlarga ega tengdoshlaringizni tasavvur qilasiz? Maktab jamoat ishlarida, turli ko'rik-tanlovlarda, kecha va tadbirlarda, bilimlar bellashuvlarida, sport musobaqalarida faol ishtirok etadigan intiluvchan, izlanuvchan o'g'il-qizlar ko'z oldingizga keladi, shundaymi?

MAHLIYODAN IBRAT OLING



Demak, Navoiy viloyati, Nurota tumani-dagi 27-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Mahliyo Qo'nishevani faol qizlardan biri, desak bo'ladi. Chunki u qator yillardan buyon ko'plab tanlovlarda ishtirok etib, o'z bilimini sinovdan o'tkazib kelmoqda. Jumladan, 2010-yili poytaxtimizda o'tkazilgan «Toshkent quvonchlarini» tanlovining respublika bosqichida qatnashib, maxsus sertifikat bilan taqdirlangan bo'lsa, keyinchalik «Bahor malikalari», «Askar akamga maktub» kabi tanlovlarda 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

xonadonlarimizga tinchlik, xotirjamlik, dasturxonlarimizga qut-baraka, to'kinlik tilashadi. Darhaqiqat, yurtimizda tinchlik, osoyishtalik bo'lsagina, qalbimiz shijoatga to'ladi, kelajagimizga ishonch bilan boqib, yangi yangi marralarni ko'zlab yashaymiz. Bugungi obod turmushimiz, farovon hayotimiz timsolida keksalarimiz, nuroniy



otaxon-u onaxonlarimiz duolari ijobatini ko'raman.

Mazkur tanlovga yo'llagan «Qarisi bor uyning parisi bor», «Yurtim ozod, turmush obod» deb nomlangan rasmlarim orqali ana shu fikrlarimni bayon etishga harakat qildim...

Mahliyo qizimizdan ibrat olib, Siz ham yanada faolroq bo'lishga, tanlovlarda qatnashib, o'z bilim va salohiyatingizni boyitishga intiling.

T. ORTIQOVA

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga

KELAJAKNING EGASIMIZ

Istiqlol yillarida yurtimizda qanchadan qancha ezgu ishlar amalga oshirilmogda. Yurtboshimiz tomonidan har bir yilga o'zgacha nom berilishi ezgu va ibratli ishlarga turtki bo'ldi, desam adashmayman. Ayniqsa, qishloq joylariga berilayotgan e'tibor tahsinga sazovor. Oilalar

mustahkamligi, farovonligi, farzandlar kamoli hamisha davlatimiz diqqat-e'tiborida turadi.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, davlatimiz tomonidan asosiy e'tibor eng birinchi navbatda ta'limga qaratilyapti. Biz yoshlarning puxta bilim egallashimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'z navbatida bizlarga bildirilayotgan ishonch qaysidir ma'noda oqlanmogda, desam mubolag'a qilmagan bo'laman.

O'quvchi yoshlarimizning ko'plab xalqaro tanlovlarda, musobaqalarda, olimpiadalarda

g'oliblikni qo'lga kiritib, yurtimiz dovru'g'ini dunyoga taratib kelishayotgani so'zinning isboti bo'la oladi. Shunday yoshlarimiz bor ekan, yurtimiz kelajagi yanada porloq, mustaqilligimiz abadiy bo'lishiga ishonaman. Bu e'tibor bizni ko'proq bilim olishga, g'alabalar sari intilishga undaydi.

Yulduz ABDURASHIDOVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani,
Vang'oz shaharchasi

Toshkent viloyati «Turon» axborot kutubxona markazi poytaxtimizning Hamza tumanidagi Quruvchilar dahasida joylashgan. Yaqin atrofdagi 206-, 212-umumta'lim maktablari o'quvchilari kutubxonaning eng faol a'zolaridir. Ziqo maskanida tanig'li olimlar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, kitobxonlik bellashuvlari o'tkazildi. Bolalarning sevimli yozuvchilari Xudoyberdi To'xtaboyev, Tohir Malik bilan bo'lgan uchrashuvlar o'quvchilarni kitobxonlikka undagan bo'lsa, ajabmas.

Prezidentimizning 2006-yil 20-iyundagi «Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida»gi Qarori asosida qayta vujudga kelgan, mazkur ma'rifat markazidan ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-ilmiy, texnik va badiiy yo'nalishdagi minglab adabiyotlar o'rin olgan.

– Kitob zaxiramiz 385 mingdan ziyod, – deydi bosh kutubxonachi Gulchehra opa Gadoyboyeva. – Markazimiz kompyuterlashtirilganligi sababli, kitoblarning elektron shaklidan foydalanish imkoni ham bor. Bu imkoniyatlar esa kitobxonlar sonining yanada ortishiga sabab bo'lmoqda. Ayni paytda olti mingdan ziyod kitobxon markazining doimiy a'zosi. Ular orasida yosh kitobxonalarning ham ko'pligi bizni yanada quvontiradi...

Nurxonada o'g'il-qizlarni mutolaaga jalb qilish maqsadida ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda. Yaqinda mazkur kutubxona hamda 206-maktab o'quvchilari

KUTUBXONA – NURXONA



hamkorligida «Eng yaxshi kitobxon», «Eng ko'p she'r biladigan o'quvchi» singari tanlovlar o'tkazildi. Ushbu tanlovlar g'olibi tengdoshingiz Zarina kitobga o'zgacha mehr qo'ygan. Keling, yaxshisi, bu haqda uning o'zidan eshitamiz.

«TURON» – MA'NAVIYAT O'CHO'G'I

«Turon» kutubxonasi biz o'g'il-qizlarning eng sevimli maskanimizga aylangan. Biri-biridan xushmuomala kutubxonachi opalarimiz boshchiligidagi o'tkaziladigan kitobxonlik bayramlarida, ma'naviyat tadbirlarida, tanlovlarda qatnashamiz.

Yaqinda ana shunday tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritib, «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandim. Bu yutug'im meni yanada ilhomlantirdi.

Men she'rlarni ifodali o'qish va yod olishni yoqtiraman. Bu esa xotirani mustahkamlaydi, so'zga bo'lgan mehrgingizni oshiradi.

Oilaviy kutubxonamiz juda boy. Biz har kuni kitobning tarbiyaviy ahamiyati, uni qanday o'qish, asrash lozimligi haqida suhbatlashamiz.

Kitob samimiy do'st, ma'naviyatga yetaklovchi murabbiydir. Unga do'st tutinsangiz, bekorchilikka, zararli ishlarga o'rin qolmaydi. Muhimi, vaqtini qadrlashni, o'z ustingizda ishlashni o'rganasiz. Shuning uchun men tengdoshlarimga kitobdan sira ham uzoqlashmang, degan bo'lardim.

Zarina AKTAMOVA,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
206-maktabning 5-«V» sinf
o'quvchisi



Shahlo RUSTAM qizi

USTOZ QUVONCHI

Qadrlı bolajonlar! Gazetamiz obunasi yildan yilga ortib borayotganidan xabaringiz bor. Bunda, avvalo, Sizning mutolaaga bo'lgan ishtiyoqingiz, gazetxonligingiz sababdir. Qolaversa, bunda fidoyi ustozlaringizning ham hissasi beqiyos. Ana shunday ustozlardan biri tahririyatimiz tahrir hay'ati a'zosi, iqtisod fanlari nomzodi, O'zbekiston Jumalistlari ijodiy uyushmasi a'zosi Murtazo ota Sultonovdir.

Tinib-tinchimas, qalbi bolalarcha beg'ubor ustozimiz hanuzgacha bolalar nashrlarining obunasi bilan qiziqadilar, bu borada o'z maslahatlari, takliflarini berishdan aslo charchamaydilar. Shuningdek, qo'lga kiritgan yutuqlarini ham bolajonlar bilan baham ko'rishni istaydilar.

Yaqinda ustoz tahririyatimizga o'zgacha kayfiyatda kirib keldilar. Ular yurtimizda 1993-yilda ro'yxatdan o'tgan,



V.MYASNIKOV olgan surat

maqsadi ilm-fanning tarixiy-taraqqiyot bosqichlarini, jahonning ilm-fan yutuqlarini o'rganish, uni yanada rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishdan iborat bo'lgan xalqaro Antique Word ilmiy akademiyasining akademigi bo'lib, maxsus Diplom hamda ko'krak nishoni bilan taqdirlanibdilar.

Biz ham ustoz quvonchiga sherik bo'lib, mehnatlaringiz rohatini ko'ring, doimo yaxshilar davrasida yuring, deya niyat bildirdik.

Ulug'bek MUSTAFO. «Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha» kabi bolalar nashrlarida o'z ijod namunalari bilan muntazam qatnashib turadigan bu ijodkorning nomi siz aziz o'quvchilarga juda yaxshi tanish bo'lsa, ajabmas.



ADIBIMIZNI QUTLAYMIZ!

1958-yili Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanida tavallud topgan ijodkorimiz ayni paytda Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida istiqomat qiladi. 34 yildirki, tumandagi 26-, 39-umumta'lim maktablarida, ayni kunlarda 29-maktabda o'quvchilarga tarix fanidan saboq berib kelayapti. Shuningdek, tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limida uslubchi vazifasida faoliyat ko'rsatayotgan Ulug'bek akani hamkasblari, shogirdlari ijodkor ustoz, deya ardoqlashadi. Boisi, u bir necha yillardan buyon bolalar uchun ijod qilib keladi. Uning «O'kinch», «Insof», «Ehtirom», «Akmalning o'yin-

choqlari» nomli hikoyalar to'plamlari, shuningdek, «Yangiyo'lning yangi odamlari», «Qo'shyog'ochliklar», «Nurafshon yo'l» nomli publitsistik kitoblari chop etilgan.

Tinib-tinchimas ijodkor ustozimizning uzoq yillik samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U oliy toifali pedagog, «Xalq ta'limi a'lochisi» nishondori, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibidir.

Ayni kunlarda 55 yoshli tavallud ayyomini nishonlayotgan adibimizni ko'p ming sonli o'quvchilarning nomidan chin dildan muborakbod etamiz! Ulardan yangi-yangi hikoyalar, qissalar kutib qolamiz.

Insonga zavq-shavq ulashadigan vositalardan biri bu kuy-qo'shiqdir. Kishilarning og'ir iztirobli holatida ham, xursandchiligida ham kuyning o'rni beqiyos. To'y-u tomoshalarimiz ham kuy-qo'shiq bilan...

Bir kuni bozor-o'char qilib uyga qaytdim. Xaridlarim ichida kichkina, ko'rimsiz bir buyum bor edi. Uni Navro'zga bag'ishlangan tadbirda ishlatishni mo'ljallab xarid qilgandim. O'rtancha qizim uni qo'lga olib:

– Aya, bu nima? – deb so'radi.
– Bumi, musiqa asbobi, – dedim men.

– Shunday ko'rimsiz, kichkina musiqa asbobi ham bo'ladimi? Uni qanday chaladi? – so'radi o'g'lim uni qo'lga ola turib.

To'g'risi, uni qanday chalishni o'zim ham bilmasdim.

– Aya, yuring, buvimdan so'raymiz, – o'g'lim hovliga yugurib chiqdi. Shu payt nogahon shunday mayin ohang taraldiki, uning sehdan bir zum joyimda turib qoldim. Tuyg'ularni junbushga keltiradigan nola. Asrlardan afsona so'ylayotgan navo.

– Menam chalib ko'ray, – dedi katta qizim sozga havas bilan boqib.

– Sekin ushla, o'zi temirdan yasalgan bo'lsa

SEHIRLI NAVO



ham juda nozik asbob. O'rtadagi mana bu ingichka tordan ovoz chiqadi. Tishingga tekizma, labingga ohista bosib, bir qo'ling bilan ushlab, ikkinchi qo'ling barmog'i bilan avaylab chert.

Qadriyat

Momomiz mehr bilan bolalarga cholg'u asbobi haqida tushuncha berardi.

– Buvi, siz chalsangiz, mayin ohang taralyapti, men chalsam, ovozi boshqacha chiqyapti, – dedi qizim.

– Chunki, opajon, bunga uquv kerak, mehr kerak, siz bilan men bu asbobni hozir ko'rib, bilib turibmiz. Buvim esa u bilan yoshligida tanishib olgan, – dedi hazil aralash o'g'lim.

Yana ohang taraldi. Momomiz ko'zlarini yumib, butun vujudini mehri bog'lab, ko'ngil misralarini joylab, kuy chalardi. Hovli uzra taralgan bu navodan qushlar ham orom olayotganday jim edi.

Alpomishlar, Barchinoylar o'lkasiga xos sado, bu yoqimli kuy, bu sas olamni to'ldirib taralayotgan bu mehr bulog'i chanqovuzning ovozi edi. Kichik xaridim keltirgan katta shodlikdan, bolalarim quvonchidan, saksonga kirgan momomning mehri so'zlaridan o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim.

Dilbar NORMURODOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
11-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

FE'LIMIZNI NAZORAT QILAYLIK



Tishimni davolatdim. Shifokor Siddiq Olimov – fan nomzodi, o'z kasbining mohir ustasi shunday deb qoldilar: «Tishdagi illat inson fe'lidagi illatga o'xshaydi. Uni o'z vaqtda davolamasang, tishlaringni tamom qiladi». «Inson fe'lidagi illat qanday davolanadi?» degan savolimga javoban qiziq maslahat oldim: «O'z kamchiliklarini qidirib top. So'ng, ularni qog'ozga yoz va tuzataman deb ahd qil. Sekin-sekin o'z xatolarini, fe'lingdagi nuqsonlarni tuzatib bor. Tuzalganlarini ro'yxatingdan o'chir, o'rniaga o'zingdan topilgan yangi kamchilikni yoz. Shu taxlit ish yuritsang, kam xato qilasan».

Bu maslahat haqida uzoq o'yladim va do'stlarim bilan birga muhokama qilgim keldi. Avvalo, insonning fe'li haqida. U birdan shakllanmaydi. Ota-onasidan meros o'tgan

fe'l-attvori tashqi omillar ta'sirida asta-sekin shakllana boradi. Shuningdek, fe'ldagi nuqsonlar ham shu tariqa paydo bo'ladi. Fe'limizdagi kamchiliklar faqat tashqi omillar, o'zgalar sababli paydo bo'ladi, demoqchi emasman. Bunga o'zim ham sababchimiz. Kamchiliksiz inson bo'lmaydi. Faqat o'zimizdagi nuqsonlarga qarshi kurashishimiz lozim. Shundagina komillik bizga eshik ochadi. Atrofimizdagilar odobimizdan mamnun bo'lsalar, yutuqlarimiz ko'payadi. Bo'sh vaqtimizni bekorchi ishlarga sarflamasak, kelajagimiz go'zal bo'ladi. Siz bunga nima deysiz, tengdosh?!

Go'zal SALOHIDDINOVA,
Buxoro shahridagi 35-umumta'lim
maktabining 9-A sinf o'quvchisi

Namxush havo kech kuz daragini berganiga ham bir necha kun bo'lib qoldi. Bu paytda dalada mol, qo'y-qo'zilar boqishning gashti o'zgacha. Mol boqish o'n to'rt-o'n besh yashar biz tengi bolalar uchun uydin chiqishning yagona yo'li.

Bugun dalaga kartoshka olib kelish navbati Uchqunni. U tunov kuni quruq qo'l bilan kelgan bo'lsa-da, bugun qo'yni to'la. Ularning oilasi katta, o'n jon. Shu vajdan kamxarjroq.

Ammo juda ham inoq yashashadi. Ay-niqsa, enasi shirinso'z ayol. Hech qachon tilidan «bolam, bo'tam» so'zi tushmaydi.

Uchqun etagiga bir necha yamoq yopishgan choponi qo'ndan to'rt-besh-ta kartoshka chiqardi. Birpasda o'tin terib keldik. Katta zovur boshida qator ekilgan tut daraxtlari atrofida nima ko'p, o'tin ko'p. Unda-bunda tut daraxtlaridan ajralib qolgan tarashalar, atrofda ivirsib yotgan xas-xashak, qovjiroq barglar, xullas, o'tin serob. Bu tarafi yarim qishloq keladigan paxtazor. Paxtasi qolmagan, yarim bel bo'lib qolgan g'o'zapoyalardan bir-



ikkitasini ol-sak, olibmiz-da.

Sal o'tmay, cho'g'da jizillayotgan kartoshkalar hidi dimoqqa urildi. Bu yog'i oson. Besh-o'n daqiqadan so'ng tobora xiralashib borayotgan cho'g'lar ichidagi kartoshkalarini olamiz-u, u qo'ldan-bu qo'lga ikki-uch bor halinchak qilib sovutamiz. Men kichkinagina tuz xaltamni ko'z-ko'z qilishim bilan odatdagidek har tomondan qo'llar cho'zilaveraladi:

- Sol, sol ozroq.
- Ozroq cho'z.
- Menga-chi?

Sarg'ayib ketgan kemtik tishlarini tirjaytirib, cho'ziq boshini xiyol qiyshaytirganicha qo'l cho'zib turgan Shahobdan shu paytda alamimni olvolaman:

- Kecha kuchugingni men ham olishtiray, deganimda qizg'anding-ku. Qalay bo'larkan? Olim akaning kuchugi bolalasin, mening ham kuchugim bo'ladi. Bitta bolasini menga berarkan, o'zi aytdi.

Shahobning qisiq ko'zlari battar qisilib, g'o'drangan bo'ladi:

- Qizg'anchiq!

* * *

- Bobur, tur tezroq, - enamning ovozsizdan uyg'onib ketdim. Zo'rg'a ko'zimni ochib qaragam, enam yeb to'yman sigirimizni sog'ayotgan ekan. - Tur, anavi Olim akang kelib ketdi. Kuchugi bolalabdi. «Bittasini menga berasiz», deganmishsan-ku. Olsang, ertaroq borib erkagidan olib kel. So'ragan, so'ramagan olib, tugab qolmasin.

Har kuni enamning uch-to'rt bor javrashlaridan so'nggina bazo'r turadigan bola bugun sakrab o'rnimdan turib ketdim. Oyoqyalang Olim akaning uyiga

yugurib borsam, chindan ham uch-to'rt nafar bola nimaningdir atrofida kuymalanishyapti. Jahlim chiqib, yugurib bordim.

- Ha, mana keldi. Oldin Bobur tanlasin, keyin sizlar olasizlar. Baribir hammasini sizlarga berib yuboraman. Menga enasiyam yetadi, - deya Olim aka bolalarni chetga torta boshladi. Men qandaydir qo'rquv va hayajon bilan kalamushdek keladigan kuchukvachalar qoshiga bordim. Lekin ona kuchukning qulog'ini dikkaytirishini ko'rib, joyimda taqqa to'xtadim. Men bu mittivoylarning birini hoziroq olib ketishni istardim. Lekin ular hali juda kichkina bo'lgani uchun menda hozir faqatgina ulardan birini tanlash imkonini bor edi, xolos. Xullas, o'sha kuni oq-qora rangli kuchukchani tanlab keldim. Ko'zi

ochilganidan keyin Olim aka uni menga berdi. Sigir suti, keyinchalik oz-moz ovqat yeya boshlagan kuchugim tez katta bo'la boshladi. Aytganday, unga Arslon deb nom qo'ydim. Rangiga mos qilib Olapar qo'ymoqchi edim, lekin old oyoqlarining orqa qismida sirtlonpanjasi borligi uchun uni shunday atadim. Arslon - sherdek kuchli bo'lsin, dedim.

Bir yil ichida Arslon kattagina it bo'lib, mening doimiy hamrohimga aylandi. Dalaga mol boqishga yoki eshagim bilan o'tga borsam, u ajralmas soyam. Hatto maktabgacha kuzatib borib, kuzatib keladi. Gohida hayron qolardim: nahotki, hayvon insonga va aksincha, inson ham hayvonga shunchalar bog'lanib qolsa?! Ba'zida hamrohi nimani xohlayotganini ko'z qarashlaridan sezib tursa?! Necha bor buni o'zim sinab ko'rganman. Arslonga ko'z tashlab, nimanidir imo qilsam bo'ldi, u shu zahoti niyatimni tushunadi. Zehni o'tkir.

* * *

Bahor kelishi bilan dalada itlar jangi qizigandan qiziydi. Shunday kunlarning birida, qo'shni qishloq G'urjobdan bugun zo'r it olib kelisharmish, degan gapni eshittim-u, sigirimni oldimga soldim. Borsam, dalada odam ko'p. Chekkaroqqa suyak qo'yilgan mototsiklga tusi vahimali bir it bog'lab qo'yilgan. Jussasi kattaligidan naq ayiq deysiz. Kallasi ham salkam bir quloch. Atrofdagilar uni uzoqroqdan kuzatishyapti. Bog'langan bo'lsa ham u it. It bo'lganda ham devkelbat.

- Qani, Nosir, Olaparingni olib kel-chi, - so'ng davraboshi Yoqub kal qishlog'imizdagi eng mashhur itboqar Nosir akaga yuzlandi. U mototsikl

yonidagi itini yana bir qur ko'zdan kechirgach, davraga yetaklab chiqdi:

- Sovringa bitta qo'y atayman, - dedi Nosir aka g'urjoblik kasbdoshiga istehzoli qarab qo'yarkan. Butun vujudini hayiqish egallayotgan bo'lsa-da, qo'rqqan oldin musht ko'tarar qildi. - Agar yutqazib qo'yishdan qo'rqayotgan bo'lsang, anavi laychangni olib, qaytib ketaver.

G'urjoblik

Sobir itboqar Nosir akaning ko'r-ko'rona manmanligiga javoban yonidagi sherigiga yuzlandi: - «Bomba»ni olib kel!

Davradagilarning hayajoni kuchaydi. Nosir aka yuziga har qancha xotirjam tus bermasin, itining bo'yinbog'ini u qo'ldan-bu qo'lga olib o'ynar, bu bilan hayajonini jilovlashga harakat qilardi. Olaparning bo'ynidagi bog'ich yechib olindi. U raqibini kutayotgan bokschidek davra o'rtasidan atrofga bepisand qarab qo'yar, go'shtdor lunjidan so'lagi dam-badam oqib tushardi.

Birdan davraning kunchiqar tomoni lang ochildi. Davraga Bomba chopib kirdi-yu, hali o'zini o'nglashga ulgurmag-an Olaparni ko'kragi bilan urib yiqitdi. Kamiga bo'ynining orqa qismiga o'tkir tishlarini botirdi. Bomba rostdan kuchli ekan. Qopqondek jag'laridan raqibi ha deganda yulqinib chiqolmayapti. Kuchayib borayotgan og'riq zo'ridan g'ingshigancha boshini silkitayotgan Olaparning ovozi borgan sari ingichkalashaverdi. Chetdan bu holni xavotir bilan kuzatib turgan Nosir aka vaziyatni tushundi-yu, davra o'rtasiga oq mato ulotqirdi:

- Ol itingni!

Hamma birdaniga «vo» deb yubordi. Bomba haqidagi shov-shuv qishloqda tez tarqaldi. Hamma itboqarlar tilida uning nomi. Kimdir bu yaqin orada unga bo'y bo'ladigan boshqa it yo'qligini tinmay javrasa, yana kimdir uning sersavlat gavdasi-yu sovuqqon qarashi har qanday raqibga qo'rquv solishini aytib charchamasdi.

(Davomi bor)

Farhod ESHMO'MINOV



Sarvar FARMONOV chizgan rasmlar



BIRINCHI USTOZIM

Qo'limga berib qalam, Qarshimda ochib olam, Farzand bilib, der: «Bolam», Aziz ustoz - muallim.

Quyoshday yog'du sochib, Ilm-u fanga yo'l ochib, - Yur, - der, - yomondan qochib, Aziz ustoz muallim.

- Qiling, - der, - savob ishlar, Biz deb chekar tashvishlar. Bahor, yoz, kuz-u qishlar, Aziz ustoz - muallim.

So'zi oltindan ziyod, Uning-la go'zal hayot, Unutmaymiz umrbod, Aziz ustoz - muallim.

Nurxonoy HAYITOVA,
Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi
45-maktab o'quvchisi

QISHLOG'IM

Mening ota makonim,
Mo'jazgina chorbog'im.
Gullagan go'zal bog'im,
Jonajonim - qishlog'im!

Chiroyda tengi yo'qsan,
Lolaga to'lgan tog'im.
Vatan ichra Vatanam,
Jonajonim - qishlog'im!

Meni shoira qilgan,
O'zing ilhom bulog'im.
Bag'ri onamdek issiq,
Qadrdonim - qishlog'im!

Mahliyoixon VALIJONOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston
tumanidagi 50-maktabning
8-«V» sinf o'quvchisi

KOSONSOYIM

Namanganning yuragi sen,
Yerga tegmas kuragi sen,
Kelajakning kurtagi sen,
Kosonsoyim, Kosonsoy!

Zar do'ppimsan sen boshdagi,
Totli ta'msan sen oshdagi,
Qarog'imсан sen qoshdagi,
Kosonsoyim, Kosonsoy!
Sho'x qizlaring to'lin Oyday,
Polvonlaring jo'shqin soyday,
Bolalaring chopqir toyday,
Kosonsoyim, Kosonsoy!

Yulduz QURBONALIYEVA,
Namangan viloyati, Kosonsoy
tumanidagi 17-maktabning
8-sinf o'quvchisi

Mustaqil diyorumizda Istiqol bergan imkoniyatlardan unumli foydalanib, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritayotgan yoshlarimiz, o'g'il-qizlarimiz borki, ular haqida har qancha gapirsak, har qancha yozsak arziydi. Xalqaro tanlovlar, musobaqalar, fan olimpiadalarida mamlakatimiz sha'nini, shavkatini yuksaklarga ko'tarayotgan bunday yoshlarimizni, menga qolsa, zamonamizning mulki qahramonlari, deb atagan bo'larim.

CHEMPIONLAR

Yaqinda Eronning Mozondaron viloyatida 18 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida chempion bo'lib qaytgan 6 yoshli Islombek Sindorovni yurt faxriga aylangan yoshlar sirasiga kiritish mumkin. U chempionat doirasida rapid va blits turnirlari hamda klassik shaxmat bo'yicha uchta oltin medalni qo'lga kiritgan yagona sportchi bo'ldi. Shunday nufuzli musobaqada 21 partiya o'yin o'tkazib, shuning yigirmatasida g'alaba qozongan 6 yoshli o'zbek o'g'loni mahoratiga bugun dunyo tan bermoqda.

Farzandining baxt-u iqbolini, porloq kelajagini ko'rish har bir otana orzusi. Poytaxtimizning Sergeli tumanida istiqomat qilayotgan Sanjarbek va Hafiza Sindorovlar ham ana shunday ota-onalardan. Lekin oilalarimizning yana shunday a'zolari ham borki, ta'bir joiz bo'lsa, o'g'il-qizlarimizni ularning ota-onalaridan-da ko'proq suyushadi, barkamol voyaga yetishlari uchun kuch-quvvatlarini ayashmaydi. Ular kimlar, deysizmi? Albatta, nuroniy otaxon-u onaxonlarimiz-da.

Islombekning buvasi Komiljon aka Sindorov ham nabiralari kelajagiga befarq bo'lmagan jonkuyar buvajonlarimizdan biri. Eng ulkan daraxt ham mittigina urug'dan bunyod bo'lgani kabi farzand tarbiyasiga qancha barvaqt kirishilsa, undagi iqtidor o'z vaqtida payqab, to'g'ri yo'naltirilsa, shuncha yaxshi samara berishini

KAMOL TOPADI BUNDA



hayot tajribasidan o'rgangan Komiljon aka go'dakligidan xotirasi juda kuchli bo'lgan nabirasi Javohir bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Buvasi bilan shaxmat o'ynash 3 yoshidayoq karra jadvalni yoddan bilgan Javohirning eng sevimli mashg'uloti edi. 4,5 yoshida uni insonning intellektual salohiyatini, aql-zakovatini rivojlantiradigan bu sport turi bilan jiddiy shug'ullanirishni niyat qilib, o'smirlar o'rtasida ikki karra jahon chempioni Sirojiddin Zayniddinovning shaxmat maktabiga olib borishdi. Sergeli tumanidagi 301-umumta'lim maktabida tahsil olayotgan Javohir ayni paytda yuzdan ziyod murakkab partiyalarni yoddan biladi. 2011-yili Toshkent shahar

birinchiligi g'olibi bo'lib, ilk g'alabasini qo'lga kiritgan bo'lsa, xalqaro maydondagi dastlabki g'alabasiga 2012-yili Hindistonning Dehli shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida erishdi. 7 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar musobaqasida blits turnirida oltin, klassik shaxmat bo'yicha kumush medallarga sazovor bo'ldi. Bu yil O'zbekiston chempionatida 10 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasidagi musobaqada O'zbekiston chempioni bo'ldi.

Osiyo chempionatida g'olib chiqishida muhim ahamiyat kasb etdi.

– Aka-uka Sindorovlarning ulkan yutug'i shaxmat ishqibozi bo'lgan barcha tengdoshlariga ibrat bo'lsa, ajabmas, – deydi shaxmat bo'yicha O'zbekiston chempionati sovrindori, murabbiya Sabohat Zayniddinova. – Ularga havas qilib, maktabimizda shaxmatning sir-asrorlarini o'rganayotgan boshqa bolalar ham g'alabalari sari intilishyapti...

Biz esa qo'shaloq chempionlar kamol topayotgan Sindorovlar oilasiga

astoydil havas qildik. Sportning insonda kuchli iroda, vatanparvarlik, el-yurtga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirishini, bir so'z bilan aytganda, yosh avlod tarbiyasida turgan muhim o'mini teran anglagan oila a'zolari hozirdanoq mehnatlarining totli mevasidan bahramand bo'lishyapti.

– Osiyo chempioni Nodirbek Abdusattorovga havas qilib, to'ng'ich o'g'ilning shaxmatchi bo'lishini orzu qilardim, – deydi chempionlarning dadasi Sanjarbek Sindorov. – Bugun mening farzandlarim ham xalqaro maydonlarda yurtimiz sharafini himoya qilishayotganidan behad mamnunman. Bu, avvalo, Istiqol sharofati. Yurtimizdagi tinchlik, barqarorlik, qolaversa, yoshlarga qaralayotgan yuksak e'tibor mevasidir...

Darhaqiqat, ana shu e'tibor-u imkoniyatlar tufayli yoshlarimiz o'z iste'dodi va salohiyatini xalqaro maydonlarda to'laqonli namoyon eta olyapti. Tinch va osoyishta diyorumizda, sog'lom oilalarda chempionlar kamol topayapti. Farzandlarini Vatan sharafini ko'klarga ko'taradigan, mustaqil diyorumiz ravnaqi yo'lida kamarbasta insonlar etib tarbiyalayotgan bunday oilalar ko'payaversin.

Feruza JALILOVA

JAHON KUBOGI SOHIBI

Aziz bolajonlar, orangizda sportning karate turiga qiziqmaydiganlar bo'lmasa kerak-a? Ko'rgan filmlari qahramonlarning epchil, tezkor harakatlariga havas qilgan Muhammadabdulaziz ham besh yoshidan karate bilan shug'ullana boshlagan. Sportchilar oilasida tavallud topgan bolakayning ustozlari Xojamqul Xojaqulovdir.

– Yaxshi sportchi bo'lish uchun tinimsiz mehnat qilish, mashaqqatlarni yengib o'tish lozim, – deydi Xojamqul aka. – O'g'lim besh yoshida mashqlarni bajarishga juda qiyinalardi. Uning tabiatan nimjonroqligi meni biron xavotirga solardi. Lekin ko'p o'tmay, xavotirimga o'rin qolmadi. Sport Muhammadabdulazizni dadillashtirib, ham jismonan, ham aqlan chiniqtirdi.

Qahramonimiz sport bilan astoydil shug'ullangan bola, albatta, muvaffaqiyatga erishishini isbotladi! U ham ilk yutug'ini sakkiz yoshida karate shotokan bo'yicha O'zbekiston chempionatida qo'lga kiritdi. Shu yili Turkiyada



bo'lib o'tgan xalqaro turnirda ham birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Xalqaro musobaqalarni diqqat bilan kuzatib, o'z ustida yanada ko'proq ishlari boshladi. Intilganiga tole yor, deganlariday, 2012-yil Toshkent shahrida o'tkazilgan jahon kubogida kumite va kata bahslarida sharaflari birinchi o'rinni egallagan tengdoshingiz jahon kubogi sohibiga aylandi. Bundan uning ustozlari, yaqinlari, ayniqsa, otasi behad quvondi. Sinfidosh do'stlari juda havas qilishdi. Axir chempion bilan bir maktabda o'qish ham faxr-da!

Bu yutuqlar Muhammadabdulazizning kelajakdagi muvaffaqiyatlari debochasi bo'lsa, ajabmas.

Jajji chempionimiz yurtimiz dovru'g'ini dunyoga taratadigan azamat o'g'lon bo'lib kamol topadi. Siz ham yurtimizning ana shunday irodali, iqtidorli farzandlariga havas qilib, iste'dodingizni namoyish etishga bel bog'lang!

Davron SUNNATOV

GULLARNI SEVING

Aziz bolajonlar, dunyoda gullarni sevmaydigan, ularning iforidan bahramand bo'lib, go'zalligidan zavqlanmaydigan inson topilmasa kerak. Ayni kunlarda so'lim xiyobonlarda, ko'rkam ko'chalarimizda, fayzli hovlilarimizda qiyg'os ochilib turgan rango-rang gullarni ko'rib, bahri dilimiz ochiladi. Xonaki gullar ham o'ziga xosligi bilan e'tiborimizni tortadi, ko'zlarimizni, dillarimizni quvnatadi. Lekin ularning insonga zavq ulashish bilan birga shifobaxsh xususiyatlari borligini bilamizmi?

Bugun «Bilasizmi?» rukni orqali ana shunday gullardan ayrimlari haqida ma'lumot berishga chog'landik.

YORONGUL (Geran)

U juda foydali xususiyatga ega bo'lib, o'zidan efir moyi ajratib chiqaradi. Insonlarning kayfiyatini ko'taradi, asab kasalliklarini, uyqusizlikni davolaydi, modda almashinuvini yaxshilaydi. Nafas yo'li xastaliklarining oldini olib, o'pkaga yengillik baxsh etadi.



BINAFSHA (Fialka)

Binafshaning sirli xususiyatlari juda ko'p. U xonadonlarni turli baxtsizliklardan asraydi. Bolajonlarni esa ancha bosiq, kattalarning gapiga kiradigan qilib qo'yadi. Shu bois, uni ko'proq bolalar xonalarida o'stirganingiz ma'qul.



PUL DARAXTI

Aytishlaricha, «Pul daraxti» deb ataladigan bu gul moddiy daromad keltirar ekan. Agarda uning barglari mayda bo'lsa, hamyonlardagi pullar maydalashar, yirik bo'lsa, mo'may daromad keltirar ekan.

Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi



Keling, ertak o'qiymiz!

Qadimda bir Ariq bo'lgan ekan. Bir kuni Suv pishqirib kelib, Ariqqa shunday debdi:

— Hoy Ariq, sen mensiz hech kimga nafi tegmaydigan

suvlari yoyilib, qaqrab yotgan yer bag'riga singib ketaveribdi. Harchand urinmasin, birorta niholni sug'ora

ARIQ VA SUV

shunchaki bir chuqurliksan. Mening esa insonlarga nafim tegadi, mensiz yashay olishmaydi. Gullar, maysalar, dov-daraxtlar, butun borliqni yashnataman...

— Nega unday deysan, axir men senga yo'l ko'rsatmasam, zamin bag'riga singib ketasan-ku, — e'tiroz bildiribdi Suv.

— Hecham-da, — bo'sh kelmabdi Suv. — Sensiz ham yo'limni topib ketaman.

U shunday deya o'zanini o'zgartirib, keng dalalar sari yo'l solibdi. Daladagi o't-o'lanlar, dov-daraxtlarni sug'orishga kirishibdi. Ammo

olmabdi. Qarshisidagi mevali daraxtlar, gullar, o't-o'lanlar ko'z o'ngida qovjiray boshlabdi. Shundagina Suv qilgan xatosini tushunib yetibdi va Ariqdan uzr so'rabdi.

Ular yana ahil-inoq bo'lib, tabiatga, insonlarga naf keltirishdek ezgu ishlarini

davom ettiraverishibdi.

Qissadan hissa shuki, ahil-likda, hamjihatlikda hikmat ko'p.

Gulshan XOLTO'RAYEVA,
Surxondaryo viloyati,
Boysun tumani,
Kafrun qishlog'i

Ushbu sonda Zulayho MO'MINOVA, Mohira MUHAMMADJONOVA chizgan rasmlaridan ham foydalanildi.

15-iyul 2013

DENGIZDAGI «SHIFOKOR»LAR

Buni qarangki, dengizdagi baliqlar ham kasal bo'lishar ekan. Bemor baliqlar odamlarga o'xshab kasalxonalariga borishadimi, deysizmi? Albatta. Dengizda ham kasalxonalar, «shifokor»lar bor ekan.

Olimlarning ta'kidlashicha, katta dengizda 45 ta kichik turdagi baliqchalar «shifokor» bo'lib «ishlashar» ekan. Ular olti soat ichida 300 dan ortiq kasal baliqlarni ko'rikdan o'tkazishadi. Tomog'i og'rikan baliqlar og'izlarini ochib turishar, «shifokor»lar esa bakteriyalarni tozalab tashlashar ekan. Ma'lum bo'lishicha, bakteriyalar xaloskor baliqlarning asosiy yemishi hisoblanar ekan.

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
74-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi
Surayyo MIRHODIYEVANing
xitoy tilidan tarjimasini



XANDALAR

QISQA TARIX

Buvasi tarix fanidan «2» baho olgan nevarasidan ranjit, unga tanbeh berdi:

— Seni qara-yu, men sendek vaqtimda tarixdan faqat a'lo baholarga o'qiganman.

Nevarasi buvasiga bamaylizotir javob qaytlardi:

— Buvajon, bunday bo'lishi tabiiy-ku azir, chunki siz o'qigan paytda tarix roza 60 yilga qisqa edi-da!

XULOSA

— Jismlar issiqdan kengayadi, sovuqda esa torayadi, — deb tushuntirdi fizika o'qituvchisi darsda.

— Endis bildim, shuning uchun qishki ta'til qisqa, yozgisi uzun bo'lar ekan-da, — deb xulosa chiqardi Bilmasvoy.

DILOROM tayyorladi



Akuladan ham katta,
Kema emas, albatta.
Ozig'i qisqichbaqa,
Uning nomi qanaqa?

Umida TOSHPOLATOVA,
Samargand viloyati, Paxtach tumani